

SAID AHMAD ASARLARINI TANQIDIY FIKRLASH ORQALI O'RGANISH HAQIDA MULOHAZALAR (Reflections on the study of Said Ahmad's works through critical thinking)

Shoira Saydullayeva

ToshDO'TAU 1-bosqich magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Tanqidiy fikrlash" metodi haqida fikr yuritiladi. O'zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi tarkibidagi "Qirq besh kun" romani hamda "Qorako'z majnun" hikoyalari tanqidiy fikrlash orqali o'rganish bo'yicha ba'zi xulosalar o'rta tashlanadi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, Said Ahmad, "Qirq besh kun" romani, "Qorako'z majnun" hikoyasi.

Аннотация. В этой статье обсуждается метод критического мышления. Некоторые выводы можно сделать из критического изучения романа «Сорок пять дней» народного писателя Узбекистана Саида Ахмада в трилогии «Горизонт» и рассказа «Черноглазый меджнун».

Ключевые слова: критическое мышление, Саид Ахмад, роман «Сорок пять дней», рассказ «Черноглазый меджнун».

Annotation. This article discusses the method of critical thinking. Some conclusions can be drawn from a critical study of the novel "Forty-five Days" by the People's Writer of Uzbekistan Said Ahmad in the "Horizon" trilogy and the story "Black-eyed majnun".

Keywords: critical thinking, Said Ahmad, novel "Forty-five days", story "Black-eyed majnun".

Kirish. Masalaning qo'yilishi. Adabiy ta'limda hamisha o'quvchining mustaqil, erkin fikrlashi muhim sanaladi. To'g'ri, hozirgi kunda yangicha ta'lim texnologiyalari, yondashuvlar kundan-kunga taraqqiy etib bormoqda. Bu esa o'qituvchining o'zi ustaida tinmay ishlashi lozimligini anglatadi. Dunyoda turli ta'lim texnologiyalari qo'llanadi. Ayni damda mustaqil hamda tanqidiy fikrlash – bugungi kunning ham dolzarb masalasi hisoblanadi. Chunki aynan shu metod orqali imon-e'tiqodli, to'g'ri yo'ldan adashmaydigan, ilg'or hamda to'g'ri fikrli inson tafakkurini shakllantirish mumkin. Bu maqolamizda ana shu metod – "Tanqidiy fikrlash" haqida ayrim fikrlarimizni bayon etamiz.

Muammoning o'rganilishi va tadqiqi. Barchamizga ma'lumki, hozirgi davrda adabiy ta'limga yangicha yondashuvlarsiz munosabatga kirishib bo'lmaydi. Chunki zamon talabi shunday. Hozirgi zamon o'quvchisi ancha xabardor o'quvchi ekanligini unutmaslik kerak. Pedagogikada pragmatik yondashuv asosan yangi va kutilmagan natijalarni taqdim etadi. Va eng muhim pedagogik qoidani sira unutmaslik kerak: tajribalardan qo'rqadigan muallim kerkli natijaga erisholmaydi. O'z davrida mashhur pedagog Komenskiy "Fanni o'rgatishning to'qqiz qoidasi"dan uchinchisida: "Nimani o'rgatmoqchi bo'lsang, to'g'ri tushuntir, murakkablashtirma", -deydi. [1. Komenskiy]. Boshqa bir olim – Jon Dyui esa bu fikrlarni rivojlantirib, deydiki, o'quvchini o'rab turgan borliq, uning ijodkorligi hamda mustaqil munosabati – pedagogikada muhim rol o'ynaydi. [2. Jon Dyui]. Darhaqiqat, dars jarayonida o'quvchi o'zini qulay tutishi lozim. Va eng muhimi o'rganilayotgan mavzuga, biron bir muammoga o'zining shaxsiy qarashlarini rivojlantirib borilishi – mana ilg'or pedagoglar talab qilgan qadriyatlar. Qozoqboy Yo'ldoshev ham yozadiki: "Haqiqiy badiiy adabiyot namunasi qiziq syujetli yengil-yelpi bitiklardan farqlay olmaslik badiiy matnni qimmatini nimadan iborat emasligini bilmaslik badiiy shabko'rlik – daltonizmga, didsizlikka olib boradi. Estetik shabko'rlik, didsizlik esa ma'naviy kemptiklik, axloqiy loqaydlik kabi illatlarga sabab bo'ladi. Adabiy asar oqimaydigan, uni tahlil qila olmaydigan, undan ta'sirlana bilmaydigan kishi ma'naviy qadriyatlarni tuymaydi, tushunmaydi, binobarin, ularga mensimay qaraydigan bo'ladi". [3. Q. Yo'ldosh, 21-bet]. Demak, ko'ramizki, o'qituvchi oldida bir nechta muhim vazifalar turibdi. Shularni ichida kam ahamiyatli bo'lmagan bir talab ham bor, ya'ni

– o‘quvchi o‘zining mustaqil, kerak bo‘lsa, tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishi kerak. Bunga qanday erishiladi?

Dastavval darsning tashkiliy qismlari orasida o‘quvchi bajarishi kerak bo‘lgan jihatlarni aniqlab olish kerak. Masalan, Said Ahmadning “Ufq” romanini [4. Said Ahmad. “Ufq”] o‘rganishda Abdulla Qahhor ta’riflaridan foydalanish muhim. [5. A. Qahhor, 216-218-bet]. Chunki ulug‘ adib trilogiyaga eng to‘g‘ri va muhim ta’riflarni berib o‘tgan. Buni “Ta’qdimot-dars” shaklida bajarsa ham bo‘ladi. Keyin bevosita asar tahlilida “Qirq besh kun” – trilogiyaning birinchi asari haqida ma’lumot berib o‘tiladi. Mana shu joyida asar yaratilish jarayonini mamlakat tarixi bilan bog‘lab tushuntirish muhim. Bilamizki, SSSR davlati qurilgach, uning zimdan olib borilgan siyosati qo‘rquvga, ma’muriy-buyruqbozlikka asoslandi. [6. Internet manbalari hamda badiiy asarlardan Igor Bunich. “Partiyaning oltinlari” qissasi, yana mustaqillikdagi tarix kitoblari va hokazo]. Demak, asar yaratilgan davr - 1937, 38, 39- yillar davlat tarixidagi eng mash’um – qatag‘on davri ekanligini anglashlari lozim. To‘g‘ri, bunga ko‘p vaqt ketadi, ammo real voqelikni bilmay turib, asarni talqin etishga urinish ham biryoqlamalikka olib keladi. Biz tajriba o‘tkazgan sinfda 25 o‘quvchidan uchtasi bu haqiqatni anglab yetganligi ko‘rindi. O‘n bir o‘quvchi tarixiy davrni g‘ira-shira tasavvur qiladi, qolganlari esa tarixiy davr haqida to‘g‘ri tushunchaga ega emas. Endi o‘quvchi o‘zlashtirishidagi ana shu bo‘shliqni qanday to‘ldiramiz? Avvalo tarix faniga munosabatni o‘zgartirishlarini so‘raymiz. Adabiyot o‘qituvchisi sifatida o‘quvchiga XX asr tarixini badiiy aks ettirgan quyidagi muhim asarlarni mustaqil mutolaa uchun tavsiya etamiz:

Said Ahmad. “Sarob” hikoyasi.

Said Ahmad. “Oftob oyim” hikoyasi.

Shukrullo. “Kafansiz ko‘milganlar” romani.

Nabijon Boqiy. “Qatlnoma” tarixiy hujjatli qissasi.

Odil Yoqubov. “Muzqaymoq” hikoyasi.

Sherali Turdiyev. “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” Tarixiy-hujjatli qissa va boshqalar.

Xullas, o‘quvchi yirik nasriy asarlar mutolaasida tarixiy davrni, hayotni badiiy asar bilan to‘g‘ri bog‘liqlikda o‘rganishi kerak. Mana shunda o‘quvchida atrof-muhitni *tanqidiy fikrlash orqali anglash* jarayoni yuz berishi mumkin. Bunga asta-sekinlik bilan, ammo qat’iy reja asosida o‘tish mumkin.

Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi tahlilida ham mustaqil erkin fikrlashga jiddiy e’tibor qaratish lozim [7. Qorako‘z Majnun”. 2001] Chunki bu hikoya o‘quvchiining keng va atroflicha fikr yuritishiga katta imkoniyat yaratadi. Oddiygina “E’tiqod nima?” degan savolni soatlab muhokama qilish mumkin. Shu joyda e’tiqod – insonni to‘g‘ri yashash qonuni ekanligini yetarlicha tushuntira bilish lozim. Va alabatta, fikrlarimizni muqaddas kitobimiz bo‘lmish – “Qur’on” oyatlari bilan mustahkamlash lozim bo‘ladi. Jo‘n qilib aytganda, odamning musulmonchilikdan chiqishi, yoxud boshqa dinga o‘tishi uning to‘g‘ri yo‘ldan ozishi ekanligini anglab yetmoq lozim. “Qur’on”da aytiladi: “Bizlarni g‘azabga duchor bo‘lmagan va haq yo‘ldan toymagan zotlarga in’om qilgan yo‘ling bo‘lmish – To‘g‘ri Yo‘lga yo‘llagaysan.” [8. “Qur’oni Karim”, “Fotiha” surasi, 5-bet]. Insoniylikning ko‘p ijobiy tomonlari: to‘g‘rilik, sahiylik, rostgo‘ylik, ota-onani e’zozlash, vafo-sadoqat, halol va haromni farqlash kabi qator axloqiy sifatlar muqaddas kitobimizda bayon qilinganini o‘quvchilar bilishi lozim. Komenskiy ham bolaning dastlabki davrlaridanoq diniy bilimlarni egallashlari kerakligini aytgan. Demak, “Qorako‘z Majnun” hikoyasi tahlilida diniy bilimlarni kerakli darajada berilishi ham muhim jihat ekan. Va nihoyat, bolaning mustaqil tanqidiy fikrlash tarzini oshirishda “Nima uchun” metodini to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash muhim. Undan tashqari o‘qituvchining keng bilim va malakaga, salohiyatga ega ekanligi ham katta rol o‘ynaydi. “Bilim olishga ehtiyoj, unga mustaqil yondashuv insonda erkin fikrlash bo‘lganda shaxsning aqlini rivojlantirishdan tashqari, iroda tuyg‘ularini ham tarbiyalaydi” [9. Qunduz Husanboyeva, 36-bet].

Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalarning mustaqil fikrlashi, ayniqsa *tanqidiy fikrlashga* to‘g‘ri yo‘naltirishi kelajakda yaxshi mutaxassislarining yetishib chiqishini kafolatlaydigan yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komenskiy Yan Amos. “Buyuk didaktika”. https://ru.wikipedia.org/wiki/Великая_дидактика.
2. Jon Dyui. <https://zenon74.ru/school/pedagogika-dzhona-dyui>.

3. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
4. Саид Аҳмад. Уфқ. Трилогия. Т.: Yangi asr avlodi. 2015. – 912 б.
5. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти жилдлик. Бешинчи жилд. Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. – 272 б.
6. https://tass.ru/info/13298931?utm_source=yandex.ru&utm_medium=organic&utm_campaign=yandex.ru&utm_referrer=yandex.ru
7. Саид Аҳмад. “Қорақўз мажнун”. Ҳикоялар. Т.: “Ўзбекистон”. 2001. – 240 б.
8. “Қуръони Карим”. Алоуддин Мансур таржима ва изоҳлари. Т.: Чўлпон нашриёти. 1992. – 796 б.
9. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. Т.: “Innovatsion-Ziyo”, 2022. – 404 б.